



Received: February 22, 2026  
Accepted: March 24, 2026  
Available online: March 25, 2026

## Shoxida Abdullayeva

Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

### INGLIZ VA O'ZBEK IQTISODIY DISKURSIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY TERMINLAR TARJIMASINING FUNKSIONAL-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada moliyaviy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda ekvivalentlik hamda adekvatlik tamoyillarining nazariy va amaliy jihatlari kompleks tarzda tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi maxsus matnlar tarjimasida lingvistik, semantik, pragmatik, stilistik va funksional moslikni ta'minlovchi tarjima strategiyalarini aniqlash, ularning amaliy qo'llanish xususiyatlarini tahlil qilish hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan terminologik va kommunikativ muammolarni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqotda moliyaviy-iqtisodiy diskursning o'ziga xos xususiyatlari, rasmiy-uslubiy birliklari va maxsus terminologik tizimining tarjima jarayoniga ta'siri keng yoritilgan. Shuningdek, xalqaro iqtisodiy kommunikatsiya sharoitida tarjimaning funksional samaradorligi va kommunikativ aniqligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi tavsifiy, qiyosiy-tipologik, kontekstual, diskursiv hamda lingvopragmatik tahlil metodlariga asoslandi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi moliyaviy hisobotlar, audit hujjatlari, investitsiya memorandumlari, bank shartnomalari, iqtisodiy tahliliy maqolalar hamda davlat ijtimoiy dasturlariga oid rasmiy matnlar tanlab olindi. Tadqiqot davomida formal, dinamik, pragmatik, kontekstual va funksional

## Shokhida Abdullayeva

Associate Professor, Doctor of Sciences  
(DSc) in Philology  
Uzbekistan State World Languages University  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: abdullaevashoxida9@gmail.com  
ORCID iD: 0009-0006-9139-2143

### FUNCTIONAL AND PRAGMATIC FEATURES OF TRANSLATING FINANCIAL AND ECONOMIC TERMS IN ENGLISH AND UZBEK ECONOMIC DISCOURSE

#### ABSTRACT

This article examines the theoretical and practical aspects of equivalence and adequacy in the translation of financial-economic and socio-economic texts. The main objective of the study is to identify translation strategies that ensure linguistic, semantic, pragmatic, stylistic, and functional correspondence in the translation of specialized texts between English and Uzbek. In addition, the research analyzes terminological and communicative problems arising in the translation process and investigates the influence of financial-economic discourse and specialized terminology on translation practices. Furthermore, special attention is paid to communicative accuracy and functional efficiency in international economic communication.

To achieve these objectives, the study is based on descriptive, comparative-typological, contextual, discourse, and linguopragmatic methods of analysis. Financial reports, audit documents, investment memoranda, banking agreements, analytical economic articles, and official documents related to social programs in both English and Uzbek were selected as research materials. Moreover, the application of formal, dynamic, pragmatic, contextual, and functional equivalence was analyzed through authentic translation examples. At the same time, the research focuses on maintaining terminological precision, adequately rendering national-cultural units, and selecting communicative strategies

ekvivalentlik turlarining qo'llanishi real tarjima namunalari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, tarjimada terminologik aniqlikni saqlash, milliy-madaniy birliklarni adekvat ifodalash hamda auditoriyaga mos kommunikativ strategiyalarni tanlash masalalari o'rganildi.

Tadqiqot natijalari moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilish jarayonida faqat lingvistik moslik yetarli emasligini, balki semantik aniqlik, pragmatik moslashuv, stilistik uyg'unlik va madaniy kontekstni hisobga olish zarurligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida bank va huquqiy hujjatlarda formal ekvivalentlikning ustuvorligi, investitsion va marketing matnlari esa dinamik hamda pragmatik ekvivalentlikning samarali qo'llanishi aniqlandi. Moliyaviy terminlarni tarjima qilishda kontekstual va funksional moslikni saqlash xalqaro iqtisodiy muloqotning aniqligi va samaradorligini oshirishi asoslandi. Shuningdek, iqtisodiy tushunchalarni soddalashtirish, metaforik va analogik izohlash, dialogik tarjima usullaridan foydalanish keng auditoriya uchun matnlarning tushunarligini oshirishi qayd etildi.

Xulosa sifatida moliyaviy-iqtisodiy matnlar tarjimasida ekvivalentlik va adekvatlik tamoyillarining uyg'un qo'llanilishi tarjimaning sifat ko'rsatkichlarini oshirishi, iqtisodiy axborotning aniq va ishonchli uzatilishini ta'minlashi hamda xalqaro iqtisodiy-kommunikativ aloqalarda samarali vosita sifatida xizmat qilishi ta'kidlandi.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy-iqtisodiy matnlar, ekvivalentlik, adekvatlik, pragmatik ekvivalentlik, funksional ekvivalentlik, terminologik moslik, dinamik ekvivalentlik, maxsus tarjima, tarjima strategiyalari, lingvistik adekvatlik.

## KIRISH

Maxsus matnlarni tadqiq qilish tarjima nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, lingvistik, uslubiy va kommunikativ masalalarni o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston tarjimashunosligi XX asr boshlaridan milliy xususiyatni saqlagan holda, zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'un ravishda rivojlangan. Bugungi kunda maxsus matnlarning nazariy va amaliy tahlili zamonaviy ehtiyojlarga mos tarjima strategiyalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Maxsus matn va maxsus tarjima masalasi tarjima nazariyasida alohida o'rin egallaydi. Chunki, bunday matnlar odatda ilmiy-texnik, rasmiy-huquqiy, iqtisodiy va diplomatik diskursga mansub maxsus nutq doirasiga kiradi. Ularning asosiy xususiyati aniqlik izchillik ifoda mantiqliligi va qat'iylikda namoyon bo'ladi. Bunday matnlarda

appropriate to the target audience.

The findings demonstrate that the translation of financial-economic texts requires not only linguistic correspondence, but also semantic precision, pragmatic adaptation, stylistic consistency, and consideration of cultural context. More specifically, the study reveals that formal equivalence is predominantly applied in banking and legal documents, whereas dynamic and pragmatic equivalence are more effective in investment and marketing texts. Furthermore, preserving contextual and functional correspondence in the translation of financial terminology increases the accuracy and effectiveness of international economic communication.

In conclusion, the study confirms that the integrated application of equivalence and adequacy principles improves translation quality, ensures the accurate transmission of economic information, and enhances communicative effectiveness in specialized translation.

**Key words:** financial and economic texts, equivalence, adequacy, pragmatic equivalence, functional equivalence, terminological correspondence, dynamic equivalence, specialized translation, translation strategies, linguistic adequacy.

ifoda aniq, lo'nda, qat'iy bo'lishi va mazmun ikki yoqlama talqin qilinmasligi shart, chunki ular davlat hujjatlari, texnik pasportlar, qonun loyihalari va boshqa mas'uliyatli hujjatlar sifatida xizmat qiladi.

D.Muhammadiyevaning ta'kidlashicha, maxsus matnlar odatda obyektiv emotsional-ekspressiv vositalardan xoli, qat'iy mantiqiy izchillikka ega bo'ladi. Unda axborot sodda, aniq, lo'nda shaklda bayon qilinadi va shu jihati bilan badiiy matnlardan keskin farq qiladi [Muhammadiyeva, 2007]. G'.Salomovning fikricha, tarjima jarayonida faqat lug'aviy ekvivalentlar emas, balki matnning ichki semantik qatlamlari va uning sohaviy tafovutlarini to'g'ri anglash zarur. U maxsus tarjimada aniqlik va qat'iylilikni asosiy tamoyil sifatida belgilab, terminlar va professional iboralar yagona shaklda aniq va chalkashliksiz qo'llanilishi shart, deb hisoblaydi. Shuningdek, mazmun va shakl birligini to'liq saqlagan holda tarjimani uslubiy jihatdan mutlaqo mos holda ishlab chiqish majburiy sanaladi [Salomov, 2006]. Zero, bu matnlar ilmiy, texnik va huquqiy sohalarda asosiy vosita sifatida qabul qilinadi va ularning noto'g'ri tarjimasi yirik xatolarga olib kelishi mumkin.

Maxsus matnlar tarjimasida olimlar lingvistik, uslubiy va pragmatik talablarga bir vaqtda amal qilish yondashuvini qo'llaydi. Bunda matnning aniqligi, uslubiy soddaligi va mazmunning to'liq yetkazilishi asosiy mezon sifatida qaraladi. R.K. Minyar-Beloruhev maxsus tarjimani "ijtimoiy-siyosiy, harbiy va texnik matnlarni birlashtiruvchi yo'nalish" sifatida ta'riflab, ushbu matnlar aniqlik va funkcionallikni ta'minlash uchun maxsus termin va uslublardan foydalanilishini ta'kidlaydi [Minyar-Beloruhev, 1996].

Texnik tarjima bo'yicha tadqiqot olib borgan J.Byorn maxsus matnlar tarjimasida matn funkcionalligini saqlashning strategik ahamiyatini alohida qayd etadi. Uning fikricha, "texnik tarjima jarayoni ilm-fan va texnologiyaga oid matnlarni pragmatik yondashuvlar orqali aniq va oson qabul qilinadigan shaklda tarjima qilishni talab qiladi" [Byrne, 2012]. P.Xan esa texnik tarjimani ilmiy va muhandislik sohasi matnlariga xos maxsus terminologik bazaga asoslanib, bunday matnlarni tarjima qilishda soha bilimlarini chuqur o'zlashtirishni zaruriy shart sifatida ko'radi [Hann, 2004].

M.Oloxan esa ilmiy va texnik tarjimani "ilm-fan va texnologiyaga oid maxsus matnlarning tarjimasi" sifatida belgilab, bunday jarayonda terminologik aniqlikning o'rni muhim ekanligini qayd etadi [Olohan, 2004]. Ushbu fikrlar maxsus tarjima turli sohalarga ixtisoslashganligidan dalolat beradi. T.A. Fesenko esa maxsus tilning tarjima jarayoniga ta'sirini o'rganib, maxsus terminologiya bilan bir qatorda, ushbu matnlar asosida yotgan mantiqiy va madaniy kontekstni tushunish zarurligini ta'kidlaydi [Fesenko, 2002].

K.Nord funkcionalistik yondashuv asosida maxsus tarjimaning nazariy asoslarini bayon qilib, matnni tarjima matni auditoriyaning ehtiyojlariga moslashtirishni tarjimaning asosiy vazifasi sifatida ko'rsatadi [Nord, 2014]. Unga ko'ra, lingvistik moslikdan tashqari, kommunikativ va madaniy moslik ham ushbu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Y.A. Nayda maxsus tarjima jarayonida "dinamik ekvivalentlik" tushunchasini ilgari surib, tarjimada faqat mazmunning mos kelishi emas, balki

muloqotning samaradorligi va ta'sirchanligini ta'minlash lozimligini ham ta'kidlaydi [Nida, 2003]. Bu qarash maxsus tarjimada kommunikativ maqsadga erishishning muhimligini ko'rsatadi. Bu yondashuvlar maxsus tarjimaning faqat lingvistik jarayon bo'lib qolmay, ijtimoiy va madaniy omillar bilan ham bog'liqligini ham anglatadi.

D.Guadek umumiy va maxsus til o'rtasidagi farqni belgilash orqali maxsus tarjima jarayonining nazariy asoslarini mustahkamlaydi. Uning qayd etishicha, "umumiy til keng omma uchun mo'ljallangan va ma'lum bir mavzuga bog'liq bo'lmagan tilda ishlatiladigan iboralardan tashkil topgan bo'lsa, maxsus til faqat ma'lum bir soha yoki mavzuga xos terminlardan iborat" [Gouadec, 2007]. Bu ta'rif maxsus tarjima jarayonini umumiy tilni tarjima qilish jarayonidan ajratish uchun ishlatiladi. M.Rojers maxsus tarjima bilan bog'liq jarayonlarda terminologiya muhim ekanligini bayon qiladi va maxsus matnlarni tarjima qilishda "terminologik korpus" yaratish orqali aniqlik va samaradorlikka erishish mumkinligini alohida e'tirof etadi [Rogers, 2015].

Maxsus tarjima jarayonida lingvistik, ekstralingvistik va pragmalingvistik omillar uyg'unlashgan holda amal qiladi va bu jarayon tarjimaning sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan hisoblanadi [Abdullayeva, 2019]. M.A. Qodirovaning fikricha, "maxsus tarjimada terminlar izchilligi va funksional moslikni ta'minlash tarjima jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi" [Qodirova, 2018]. Umuman olganda, maxsus tilning asosiy xususiyati – terminlarning aniq va qat'iy ishlatilishi, shuningdek, matnning kommunikativ maqsadga yo'naltirilganligini ta'minlashdir. Maxsus tarjimada kontekstual va pragmatik moslashuv asosiy ilmiy yondashuv sifatida qaraladi, ayniqsa, texnik va ilmiy matnlarda bu holat alohida ahamiyat kasb etadi" [Shukurov, 2020]. G.X. Raximovning qayd etishicha, "tarjima matn va asliyat matn o'rtasidagi farqlar sababli, ular hamisha bir xil bo'lmaydi. Lekin funksional o'xshashlik tufayli TM AM muallifi asaridek qabul qilinadi va asliyatday tanqid qilinadi" [Raximov, 2021].

Maxsus matnlarni tarjima qilishda turli tarjima turlari mavjud bo'lib, ular matnning mohiyati, funksiyasi va maqsadiga ko'ra farqlanadi. Ushbu tasniflar nazariy jihatdan K.Raysning matn turlari nazariyasi [Reiss, 1989], K.Nordning funksional yondashuvlari [Nord, 2014], Y.A. Nayda [Nida, 2003] va X.Y. Vermerning [Vermeer, 1989] tarjima tamoyillari orqali asoslanadi.

Y.A. Nayda nazariyasida funksional ekvivalentlik nazariyasi tarjimada lingvistik moslikdan ko'ra, matn turlarining xususiyatlari va kontekstual yondashuvga e'tibor qaratadi. Ushbu pragmatik yondashuv tarjimaning funksional va semantik mosligini ta'minlab, asliyat matn va tarjima matn o'rtasidagi kommunikativ aloqani mustahkamlaydi. Shuningdek, olimning fikriga ko'ra, tarjima jarayonida madaniy kontekstni hisobga olish muhim ahamiyatga ega, chunki tarjima qilingan matn auditoriyada asliyat matndagi kabi ta'sir uyg'otishi lozim [Nida, 2003].

V.Koller tarjimada ekvivalentlik masalasini to'liq kontekstual asosda tahlil qiladi. Uning nazariyasiga ko'ra, tarjimada yuzaga keladigan har qanday ma'no mosligi – bu faqat so'zlar darajasidagi emas, balki matnning pragmatik, madaniy va funksional darajadagi kontekstini hisobga olgan holdagi muvofiqlikdir. Olim tomonidan ishlab

chiqilgan ekvivalentlik turlari: denotativ, konnotativ, stilistik, pragmatik, normativ va formal ekvivalentliklar barchasi kontekstual mantiqqa asoslanadi. Uning fikricha, tarjimon matndagi leksik birlikning faqat leksik-ma'no darajasini emas, balki uni o'rab turgan semantik-funksional tizimni ham hisobga olishi kerak. Chunki, biror so'zning denotativ ekvivalenti boshqa tilda mavjud bo'lishi mumkin, ammo agar u konnotativ yoki stilistik jihatdan kontekstdan chetlashsa, u holda tarjima *semantik xatolikka* yo'l qo'yadi. Shu bois V.Koller quyidagi fikrni ilgari suradi: "Ekvivalentlik hech qachon izolyatsiyada mavjud bo'lmaydi. U har doim kommunikativ kontekst doirasida shakllanadi" [Koller, 1979].

K.Nord ekvivalentlikni tarjima jarayonida nafaqat lingvistik, balki madaniy va kommunikativ jihatlariga moslikni ta'minlaydigan tamoyil sifatida ko'radi [Nord, 2014]. Uning fikricha, tarjimaning muvaffaqiyati tarjima matnning funksional ehtiyojlariga qanchalik mos kelishida namoyon bo'ladi. D.Robinson esa ekvivalentlikni tarjimada izchillik va asliyatga sodiqlikni saqlash uchun zarur bo'lgan amaliy vosita sifatida tavsiflaydi [Robinson, 2019].

Ko'rinadiki, ekvivalentlik nazariyasi tarjima jarayonida yuqori sifatli, aniq va madaniy jihatdan mos matn yaratish uchun muhim konseptual asos hisoblanadi. U tarjimon qarorlarining shakllanishida bir nechta darajalarda – xususan, lingvistik (grammatik va sintaktik), semantik (ma'no mazmuni), hamda pragmatik (nutq vaziyatiga mosligi) jihatdan namoyon bo'ladi. Bu yerda "*semantik daraja*" tushunchasi tilshunoslikning semantika yo'nalishiga asoslanadi va tarjimada so'zlarning ma'nosi, konnotatsiyasi va kontekstual mosligining aniqlanishini bildiradi, ya'ni bu termin lingvistik hodisa emas, balki ilmiy tahlil kategoriyasidir.

X.O. Gasset ilmiy tarjimani ikki bosqichli jarayon deya ta'riflaydi: avval muallif g'oyalarni ilmiy terminologiyaga moslashtiradi, so'ng tarjimon ularni boshqa til va madaniy kontekstga moslaydi. Bu yondashuv ilmiy tarjimaning murakkabligi va terminologik aniqlikning ahamiyatini ta'kidlaydi. Maxsus tarjima nafaqat lingvistik ekvivalentlarni topishni, balki mazmuni universal va aniq yetkazishni talab qiladi, shu bilan birga, lingvistik, semantik va pragmatik omillarni ham qamrab oladi [Ortega y Gasset, 1992].

A.Gomes Gonsales-Xover va Ch.Vergas Syerralarning fikricha, maxsus terminologiya tarjimada muhim rol o'ynaydi va uning to'g'ri talqini lug'atlar bilan chegaralanmaydi [Gómez González-Jover & Vargas Sierra, 2003]. Tarjimon yangi terminlar, ko'p ma'noli birliklar va terminologik tizimning o'zgaruvchan tabiati bilan bog'liq muammolarni kontekst hamda texnik tafsilotlar asosida tahlil qilishi lozim. Bunda mavzuga oid bilim, lingvistik aniqlik va pragmatik moslashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, maxsus (mavzuli) matnlarni tarjima qilish jarayoni tarjimonning faqatgina til bilimiga emas, balki soha bo'yicha chuqur bilimdonligi, analitik tafakkuri va madaniyatlararo moslashuv qobiliyatiga ham bevosita bog'liqdir. Bunday matnlarni tarjima qilishda lug'aviy moslik yetarli bo'lmay, terminlarning kontekstual ma'nosi, stilistik ifoda vositalari va matnning kommunikativ vazifalarini to'g'ri anglab, ularni adekvat ifoda etish zarur bo'ladi.

Tarjimashunoslik tarixan millatlararo muloqotni ta'minlovchi asosiy vositalardan biri bo'lib, madaniy, iqtisodiy va ilmiy aloqalarni shakllantirishda muhim rol o'ynab kelmoqda. Ayniqsa, moliyaviy-iqtisodiy matnlarning tarjimasini lingvistik moslik, funksional adekvatlik va kommunikativ aniq yetkazishni talab qiluvchi murakkab jarayondir. Ekvivalentlik masalasi tarjima nazariyasining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, u tarjima matnining asl matni bilan mazmunan, strukturaviy va kommunikativ jihatdan mos bo'lishini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Bu, ayniqsa, moliya va iqtisodiyotga oid hujjatlar, hisobotlar va tahliliy matnlar uchun muhimdir, chunki bunday matnlar aniq va bevosita ma'lumot yetkazishni maqsad qiladi.

S.L. Xalversonning yondashuviga ko'ra, "ekvivalentlik ikki til birligi yoki matn segmenti o'rtasidagi munosabat bo'lib, ularning semantik mazmuni, funksional vazifasi va kommunikativ qiymati jihatidan mos kelishi bilan tavsiflanadi. Bu munosabat maqsad tilida asl matnning mazmuniy aniqligi va kommunikativ ta'sirini qayta yaratishga qaratilgan" [Halverson, 1997]. Bu borada Q. Musayev ekvivalentlik tarjimaga "bir tildagi matn o'zga tilda shu darajadagi matn bilan almashtirish" deya ta'rif beradi [Musayev, 2005]. J.K. Catford esa tarjimaga "bir tildagi matn hosil qiluvchi materiallarni boshqa tilda ekvivalent bo'lgan matn hosil qiluvchi materiallar bilan almashtirish yoki o'zgartirish" [Catford, 1965], deb ta'rif beradi. Ya'ni, tarjima ekvivalent bo'lishi mumkin, lekin adekvat bo'lmashligi mumkin, va aksincha, u adekvat bo'lib, ekvivalent bo'lmashligi ham mumkin. Ekvivalentlik natijaga oid toifa, adekvatlik esa jarayonga tegishli toifadir [Catford, 1965].

V.N. Komissarovning fikricha, ekvivalentlik tarjima nazariyasining asosiy tushunchasi bo'lib, u asl matn va tarjima matni o'rtasidagi kommunikativ va semantik tenglikni anglatadi. Ekvivalentlik faqat lug'aviy yoki grammatik darajada emas, balki kommunikativ maqsad, funksiya va ta'sir darajalarida ham ko'rib chiqilishi kerak. Adekvatlikni tarjimaning amalda qo'llanilishi va real kommunikativ vaziyatga mos kelishi bilan bog'laydi. Unga ko'ra: "Adekvat tarjima aniq vazifa, matn janri, o'quvchi ehtiyoji va madaniy kontekstga mos holda bajarilgan tarjimadir" [Komissarov, 1990]. Tarjima lingvistik tenglikka emas, balki funksional samaradorlikka tayanadi deb tushunilishi nazarda tutiladi. Masalan, rasmiy, ilmiy yoki reklama matnlarida tarjimon so'zma-so'zlikdan chekinib, stilistik moslik, madaniy uzviylik va pragmatik tushunarlikni afzal ko'radi.

V.N. Komissarova ko'ra, ushbu ikki tushuncha bir-birini to'ldiradi, lekin qarama-qarshi emas. Ekvivalentlik nazariy mezon, adekvatlik amaliy mezon sifatida talqin etiladi. "Ekvivalent tarjima tarjimonning ideal maqsadi, adekvat tarjima esa konkret vaziyatda bu maqsadga erishish vositasidir" [Komissarov, 1990], deb e'tirof etadi.

Ekvivalentlik tarjima natijasi sifatida mazmun va shakl jihatidan moslikni anglatadi. Adekvatlik tarjima jarayonida real sharoitga mos yechim topishni bildiradi. Tarjimon matnning funksiyasi, auditoriyasi va madaniy kontekstini hisobga olgan holda ekvivalentlikka adekvat tarzda erishadi.

Moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda ekvivalentlik va adekvatlik tamoyillari o'zaro uyg'unlikda qo'llanilishi lozim. Ekvivalentlik matndagi iqtisodiy

tushunchalar, terminlar va grammatik tuzilmalar orasidagi lingvistik va kommunikativ moslikni ta'minlash, adekvatlik tarjimaning pragmatik, funksional va madaniy kontekstga mos bo'lishini anglatadi. Bunday matnlarda nafaqat terminologik aniqlik, balki hujjatlarning maqsadli auditoriyaga tushunarli yetkazilishi ham muhimdir. Tarjimon sohaga oid terminlarni chuqur bilishi, madaniyatlararo tafovutlarni anglay olishi va iqtisodiy kontekstni to'g'ri talqin qilishi kerak. Aks holda, noto'g'ri tarjima iqtisodiy ma'lumotlarning buzilishiga va xato qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

Moliyaviy matnlar tarjimasida ekvivalentlik strukturaviy va semantik aniqlikni, adekvatlik esa kommunikativ samaradorlik va madaniy moslikni ta'minlaydi. Ularning uyg'un qo'llanilishi xalqaro standartlarga mos, aniq va ishonchli tarjima uchun zaruriy shartdir.

Ekvivalentlikni ta'minlash jarayonida faqat leksik birliklarni tarjima qilish emas, balki matnning funksional maqsadi va tarjima auditoriyasiga ta'siri ham hisobga olinishi lozim. Ba'zi tarjimashunoslar, xususan, V.N. Komissarov ekvivalentlikni tarjima nazariyasining muhim tushunchasi sifatida ta'kidlab, ushbu tamoyilning yagona va universal talqini yo'qligini e'tirof etadi. Bu esa nazariy yondashuvlarning xilma-xilligiga va turli tarjima modellarining mavjudligiga olib keladi [Komissarov, 1990], deb e'tirof etadi.

Ekvivalentlikning lingvistik darajadagi cheklangan yondashuvlari, masalan, Y.I. Retskerning qonuniy moslik nazariyasida faqat so'z va ibora darajasidagi tahlilga asoslangan [Retsker, 1974]. L.K. Latishev esa funksional ekvivalentlik modeli orqali mazmunning pragmatik jihatlarini ko'rib chiqqan [Latyshev, 1981]. Biroq bunday model yoki nazariyalar ekvivalentlikni barcha darajalarda to'liq qamrab olmaganligi sababli bu masala hozirgi kunda ham chuqur ilmiy izlanishni talab qiladi.

Ekvivalentlik moliyaviy-iqtisodiy matnlar tarjimasida lingvistik, semantik va pragmatik muvofiqlikni ta'minlovchi asosiy tamoyildir. U terminologik va grammatik moslikni saqlash, shuningdek, kommunikativ maqsadga muvofiq ma'noni aniq yetkazishni talab etadi. Xalqaro moliyaviy-iqtisodiy hujjatlar tarjimasida ekvivalentlik kontekstga mos, funksiya jihatdan to'g'ri termin tanlovi orqali amalga oshiriladi.

Moliya va iqtisod sohasi o'zining yuqori darajadagi rasmiyligi, terminologik aniqligi hamda funksional jihatdan serqatlamli va murakkab mazmunga ega bo'lishi sababli tarjimada adekvatlikka bo'lgan ehtiyoj ayniqsa kuchli seziladi. Ayni shu xususiyatlar tufayli har bir matn turida adekvatlikning turli shakllari ustuvorlik kasb etadi. Quyidagi jadvalda moliyaviy-iqtisodiy matnlarning asosiy turlari va ularda adekvatlikning qaysi darajasi ko'proq qo'llanilishini ko'rish mumkin (1-jadvalga qarang):

*1-jadval. Moliyaviy-iqtisodiy hujjatlarda adekvatlik va funktsionallik zarurati*

<b>Matn turi</b>	<b>Adekvatlik darajasi asosiy bo'ladigan sabab</b>
Moliyaviy-iqtisodiy hisobotlar	Lingvistik va semantik adekvatlik zarur – har bir termin, raqamli ifoda va tushuncha aniq va to'g'ri bo'lishi shart.
Audit hisobotlari	Stilistik va kommunikativ adekvatlik muhim – mustaqil ohang, rasmiy uslub saqlanishi kerak.

Investitsiya memorandumlari	Semantik va pragmatik adekvatlik talab etiladi – investor uchun aniq, tushunarli, kontekstga mos tarjima zarur.
Iqtisodiy tahlil maqolalari	Stilistik adekvatlik yetakchi – ilmiy-analitik ohang, ritorika, emosional ta'sir saqlanishi lozim.
Byudjet rejalari va davlat moliyaviy-iqtisodiy hujjatlari	Kommunikativ adekvatlik muhim – siyosiy-ijtimoiy mazmun aniq yetkazilishi kerak.
Bank hujjatlari (kredit shartnomalari va h.k.)	Lingvistik va semantik adekvatlik zarur – huquqiy aniq ifodalar, shart-sharoitlar so'zma-so'z tarjima qilinmasligi lozim.
Bozor tahlillari (market analysis)	Pragmatik adekvatlik muhim – auditoriya ehtiyojiga mos tushuntirish, statistik iboralarni to'g'ri yetkazish.

Moliya-iqtisod sohasidagi matnlarni tarjima jarayonida tarjima qilinayotgan tilda aynan termin ma'no qamrovini ifoda qila oladigan leksemani topish hamda leksik jihatdan mosligini hisobga olish zarurdir. Jumladan, ingliz va o'zbek tillarida moliyaviy-iqtisodiy terminlarning ifodalanishida sinonim leksik birliklar farqlanadi. Tarjimada terminning ma'no qamrovi va funksional mosligini saqlash muhim.

Moliya-iqtisodiy matnlar tarjimasida ekvivalentlik tamoyillarining qo'llanilishi doimiy va tizimli xarakterga ega. Buning sababi bu sohadagi matnlarning aniqlik, normativlik, rasmiylik va terminologik izchillikni talab etishidir. Quyidagi jadvalda moliya va iqtisod sohasida uchraydigan asosiy matn turlari va ularda eng ko'p qo'llaniladigan ekvivalentlik darajalari ko'rsatilgan (2-jadvalga qarang):

*2-jadval. Moliya va iqtisod sohasida ekvivalentlik qo'llaniladigan matn turlari*

Matn turi	Qo'llaniladigan ekvivalentlik darajalari va sabablari
Moliyaviy-iqtisodiy hisobotlar	Formal ekvivalentlik – har bir ibora grammatik va leksik aniqlik bilan tarjima qilinadi.
Audit hisobotlari	Dinamik va funksional ekvivalentlik – rasmiy uslub va axborot aniqligini ta'minlaydi.
Investitsiya takliflari / memorandumlar	Pragmatik va funksional ekvivalentlik – investor uchun tushunarlik va madaniy moslikni hisobga oladi.
Bozor tahlili va prognozlar	Stilistik va dinamik ekvivalentlik – statistik iboralarni auditoriya uchun qulay shaklda yetkazadi.
Moliyaviy-iqtisodiy qonunchilik va normativ hujjatlar	Formal va funksional ekvivalentlik – huquqiy iboralarning aniqligi va mosligi ta'minlanadi.
Kredit, lizing, bank shartnomalari	Formal va pragmatik ekvivalentlik – yuridik tushunchalarni to'g'ri talqin qilishda muhim.
Soliq va byudjet hisobotlari	Funksional va tasviriy ekvivalentlik – tizimlararo tafovut sababli tushuntirish zarur.
Marketing, reklama va moliyaviy-iqtisodiy broshyuralar	Kontekstual va dinamik ekvivalentlik – madaniy moslik va kommunikativ ta'sirni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv tizimida shakllangan ayrim terminlar (masalan, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”) moliyaviy resurslar taqsimoti, ijtimoiy himoya choralarini belgilash, maqsadli byudjetlashtirish va byudjet ijrosi mexanizmlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu terminlar asosan hukumat qarorlarida, ijtimoiy reyestrlarda va davlat moliyasi tizimi doirasida ishtirok etadi. Shu sababli ularni ingliz tiliga tarjima qilish faqat lingvistik

muvofiglik masalasi emas, balki moliyaviy boshqaruv kontekstida aniq funksional ma'lumot uzatish masalasi hamdir.

Milliy ijtimoiy-iqtisodiy terminlarni ingliz tiliga tarjima qilishda lingvistik tenglikdan ko'ra, mazmuniy aniqlik, madaniy identitetni saqlash va kontekstual moslikni ta'minlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Jumladan, O'zbekistonda amalda bo'lgan "*Temir daftar*", "*Yoshlar daftari*", "*Ayollar daftari*" kabi tizim nomlari nafaqat lingvistik birlik, balki ijtimoiy institut va siyosiy-boshqaruv vositasi sifatida shakllanganligi sababli ularning tarjimasi ham institutsional va madaniy komponentlarni birgalikda aks ettirishi lozim.

Bu turdagi terminlarni so'zma-so'z tarjima qilish (masalan, *Iron Register*) semantik ma'no beradi, biroq tizimning real funksiyasi va madaniy mazmunini yetkazmaydi. Shu bois dissertatsiyada transliteratsiya + izoh asosidagi glossing ya'ni izohli tarjima yondashuvi tanlandi. Masalan: *Social Protection Register* ("*Iron Notebook*") shaklidagi tarjima orqali register orqali tizimning boshqaruv vazifasi, "*Iron Notebook*" orqali esa milliy identitet ifodalandi. Bu model P.Nyumark tomonidan ilgari surilgan izohli tarjima tamoyiliga asoslanadi: "Madaniy atamalar o'z shaklida saqlanib, ularning vazifasiga mos tushadigan ekvivalentlar orqali izohlanishi kerak" [Newmark, 1988]. Shuningdek, tarjima kontekstga mos bo'lishi kerakligini X.Y. Vermerning skopos nazariyasi bilan asoslanadi. Bu tamoyilga ko'ra, "tarjima matni so'zma-so'zlikdan ko'ra maqsadli auditoriya ehtiyojiga yo'naltirilgan bo'lishi shart va tarjima jarayonini belgilovchi asosiy tamoyil, bu umumiy tarjima faoliyatining maqsadi (skopos) hisoblanadi" [Vermeer, 1989]. Fikrimizning aniq dalili sifatida tanlangan model samaradorligi UNICEF Uzbekistan tomonidan e'lon qilingan hisobot natijalarida ham o'z tasdig'ini topgan. Misol: "*The Iron Book is a social registry used in Uzbekistan to identify low-income families...*".

Tarjima strategiyasi ISO 704:2009 standartida belgilangan terminologik aniqlik va soha mosligini saqlash talablariga to'liq javob beradi: "Termin, bildirayotgan tushunchani belgilangan kontekstda, foydalanuvchi va soha xususiyatlarini inobatga olgan holda aks ettirishi kerak" [International Organization for Standardization, 2009]. Shu asosda milliy atamalar tarjimasida lingvistik ekvivalentlikdan ko'ra ijtimoiy-funksional mazmun va madaniy-huquqiy identifikatsiyani saqlab qoluvchi yondashuv afzal variant sifatida shakllantirildi. Natijada milliy iqtisodiy terminlarning ingliz tilidagi tarjimasi global auditoriyaga institutsional, funksional va madaniy jihatdan tushunarli bo'lishiga erishildi.

Tarjima jarayonida quyidagi *strategik tamoyillar* muhim ahamiyatga ega:

1. *Terminologik standartlashtirish* – xalqaro va milliy moliyaviy-iqtisodiy terminlarning bir xilda qo'llanilishini ta'minlaydi, matnning texnik va huquqiy aniqligini oshiradi.

2. *Texnik aniqlik va statistik moslashuv* – murakkab raqamli ma'lumotlarni to'g'ri tarjima qilish va iqtisodiy tahlil natijalarini izchil ifodalashni ta'minlaydi.

3. *Madaniy kontekstga moslashuv* – iqtisodiy tushunchalarni qabul qiluvchi madaniyatga mos ravishda qayta ishlash orqali kommunikativ samaradorlikni oshiradi.

4. *Auditoriya segmentatsiyasi* – investorlar, rasmiy idoralar yoki oddiy

iste'molchilar ehtiyojlarini hisobga olib mos tarjima strategiyasini ishlab chiqish.

5. *Dinamik terminologiyani kuzatib borish* – yangi iqtisodiy terminlarni tezkor o'zlashtirish va tarjima jarayoniga integratsiya qilish.

6. *Tarjimonlar malakasini oshirish* – moliyaviy-iqtisodiy bilim va tarjima ko'nikmalarini mustahkamlash orqali sifatni oshirish.

Bu tamoyillar orqali moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilish lingvistik, texnik va madaniy jihatdan to'g'ri shakllantiriladi, bu esa xalqaro iqtisodiy muloqotning aniqligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois ilmiy yondashuvlarga asoslangan tarjima strategiyalari nafaqat tarjimonlar, balki moliya va iqtisodiyot mutaxassisleri uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

### **TADQIQOT METODLARI**

Mazkur tadqiqotda moliyaviy-iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalishdagi maxsus matnlarni tarjima qilishda ekvivalentlik hamda adekvatlik tamoyillarining qo'llanilishi qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi moliyaviy hisobotlar, iqtisodiy tahliliy maqolalar, bank hujjatlari, investitsiya memorandumlari hamda davlat ijtimoiy dasturlariga oid rasmiy matnlar tanlab olindi. Tadqiqot davomida terminologik birliklarning lingvistik, semantik va funksional xususiyatlari qiyosiy aspektda tahlil qilinib, ularning tarjima jarayonidagi moslik darajalari aniqlashtirildi.

Tadqiqot metodologiyasining asosini tavsifiy (descriptive), qiyosiy-tipologik hamda kontekstual tahlil metodlari tashkil etdi. Tavsifiy metod orqali moliyaviy-iqtisodiy terminlarning strukturaviy va funksional xususiyatlari izohlandi, qiyosiy-tipologik metod asosida esa ingliz va o'zbek tillaridagi tarjima birliklarining o'xshash hamda farqli jihatlari aniqlandi. Kontekstual tahlil yordamida termin va iboralarning ma'nosi matnning kommunikativ vazifasi hamda pragmatik konteksti bilan bog'liq holda talqin qilindi. Shuningdek, tarjima jarayonida qo'llanilgan formal, dinamik, pragmatik va funksional ekvivalentlik shakllarining amaliy samaradorligi misollar asosida baholandi.

Tadqiqot jarayonida lingvopragmatik va diskursiv yondashuvlardan ham foydalanildi. Lingvopragmatik tahlil orqali tarjima matnining auditoriyaga ta'siri, kommunikativ maqsadni amalga oshirish darajasi hamda madaniy moslashuv omillari o'rganildi. Diskursiv tahlil asosida esa moliyaviy-iqtisodiy matnlarning funksional-uslubiy xususiyatlari, terminologik tizimi va kommunikativ strukturasi aniqlashtirildi. Bunda iqtisodiy tushunchalarning tarjima jarayonida qanday pragmatik transformatsiyalarga uchrashi va ularning maqsadli auditoriya tomonidan qabul qilinish xususiyatlari tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda interpretativ va funksional yondashuvlar asosida tarjima strategiyalarining samaradorligi baholandi. Xususan, milliy ijtimoiy-iqtisodiy tushunchalarni ingliz tiliga tarjima qilishda transliteratsiya, izohli tarjima, terminologik moslashtirish va funksional ekvivalent tanlash usullarining qo'llanish holatlari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda terminologik aniqlik, pragmatik moslik va kommunikativ samaradorlikni

ta'minlovchi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

## NATIJALAR VA MUNOZARA

O'tkazilgan tahlillar va real moliyaviy-iqtisodiy matnlar ustida olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ushbu soha tarjimalarida adekvatlikning barcha besh shakli – lingvistik, semantik, pragmatik, stilistik va kommunikativ adekvatlik izchil va doimiy ravishda uchrab turadi, bu esa tarjimonning faqat lingvistik bilim bilan cheklanmasdan, keng ko'lamlı kommunikativ va madaniy kompetensiyalarga ega bo'lishini taqozo etadi:

**1. Lingvistik adekvatlik** tarjima jarayonida matnning grammatik, sintaktik va leksik tuzilmalarini boshqa tilda iloji boricha to'g'ri va mos shaklda ifodalashga intilishdir. Bunday yondashuv tarjimonning til tizimlari o'rtasidagi farqlarni hisobga olib, asosiy grammatik shakllarni (zamonlar, fe'llar, gap tuzilmalari, so'z tartibi), leksik birliklarni (terminlar, iboralar, terminlar muvofiqlik va aniqlikning boshlang'ich poydevori sifatida qaraladi. Masalan: *"The interest rate was increased by 0.5 percentage points"*. Tarjimasi: *"Foiz stavkasi 0,5 foiz punktiga oshirildi"*. Bu tarjimada grammatik tuzilma saqlangan (passiv holatda), foiz stavkasi kabi iqtisodiy terminlar to'g'ri olingan. Leksik va sintaktik adekvatlik to'liq ifodalangan. Misol: *"The interest rate hike aims to control inflation"*. Tarjimasi: *"Foiz stavkasining oshirilishi inflyatsiyani nazorat qilishga qaratilgan"*. Tarjimada grammatik tuzilma (fe'l shakli, harakat yo'nalishi) saqlangan, leksik birliklar (*interest rate – foiz stavkasi; inflation – inflyatsiya*) to'g'ri tanlangan. Bu holat lingvistik adekvatlikka xos misoldir. Tillar orasidagi grammatik va sintaktik tizimlarning farqlari tarjimada to'g'ri strukturalar yaratishni qiyinlashtiradi. Ayniqsa, zamonlar, fe'l shakllari, so'z tartibi kabi strukturalar noto'g'ri qo'llanilsa, natijada tarjima matni sun'iy yoki tushunarsiz bo'lib qoladi. Masalan: *"The inflation rate continues to rise, the central bank will consider raising interest rates"*. So'zma-so'z tarjima (grammatik-sintaktik xatolik bilan): *"Agar inflyatsiya darajasi ko'tarilayotgan bo'lsa, markaziy bank foiz stavkasini ko'tarishni ko'rib chiqdi"*. Zamon nomuvofiqligi: Asliyat matnda kelasi zamon (*will consider*) ishlatilgan, ammo tarjimada o'tgan zamon (ko'rib chiqdi) qo'llanilgan. Shartli gap konstruksiyasi noto'g'ri qurilgan: *"If ... continues"* → *"ko'tarilayotgan bo'lsa"* emas, balki *"ko'tarilishni davom ettirsa"* bo'lishi kerak. Bunday xatolar matnni sun'iy va tushunarsiz qiladi hamda muallif niyatini noto'g'ri aks ettiradi. Adekvat tarjima: *"Agar inflyatsiya darajasi oshishda davom etsa, markaziy bank foiz stavkalarini oshirish masalasini ko'rib chiqadi"*.

**2. Semantik adekvatlik** tarjimada matnning mazmuniy yadrosi, asosiy g'oya va axborot tarkibini boshqa tilda to'liq, izchil va aniqlik bilan yetkazishga intilishdir. Bu yondashuv tarjimonning kontekstni to'g'ri tushunishi, ma'no munosabatlarini aniqlash va tushunchaviy sodiqlikni ta'minlashini talab qiladi. Semantik adekvatlik tarjimaning g'oyaviy aniqligini belgilovchi muhim mezondir. Adekvat tarjima misoli: *"Quantitative easing aims to stimulate the economy by increasing money supply"*. Tarjimasi: *"Pul massasi hajmini oshirish orqali iqtisodiyotni rag'batlantirish – kvantitativ yengillatish siyosatining asosiy maqsadidir"*. Tarjimada sabab-oqibat

aloqasi, g'oya va maqsad to'liq saqlangan. Asosiy tushunchalar izchil ifodalangan. So'zma-so'z tarjima (semantik buzilish bilan): *"The company reported a significant loss due to declining sales"*. Tarjima: *"Kompaniya katta daromad haqida xabar berdi, chunki savdo kamaydi"*. Ma'no butunlay o'zgargan: *"loss"* noto'g'ri *"daromad"* deb tarjima qilingan; sabab-oqibat mantiq buzilgan. To'g'ri tarjima: *"Savdoning pasayishi tufayli kompaniya katta yo'qotish haqida xabar berdi"*. Asliyat matndagi mazmun, sabab va natija aniq saqlangan va bu semantik adekvatlikning belgisidir.

**3. Pragmatik adekvatlik** tarjimada matnning funksional va kommunikativ maqsadini, auditoriyaning madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olib, mazmuni shu kontekstda tushunarli tarzda yetkazishga intilishdir. Bu yondashuv tarjimonda faqat matnni emas, balki matnning kim uchun, qanday sharoitda, qanday niyat bilan yaratilganini anglashni talab qiladi. Bu usul o'quvchida asliyat matnga yaqin ta'sir uyg'otish orqali samarali muloqotni ta'minlaydi. Misol: *"Wall Street reacted with caution to the Fed's announcement"*. Tarjimasi: *"AQSH Markaziy bankining bayonotiga Uoll-strit ehtiyotkorona munosabat bildirdi"*. *"Wall Street"* tushunchasi o'z madaniy kontekstida saqlangan; *"reacted with caution"* – muvofiq ohangda berilgan. Auditoriya uchun pragmatik tushunarlilik ta'minlangan. So'zma-so'z tarjima (pragmatik nomuvofiqlik bilan): *"The government introduced a windfall tax on oil companies"*. Tarjimasi: *"Hukumat neft kompaniyalariga sovg'a solig'ini joriy qildi"*. *"Windfall tax"* – *"kutilmagan daromadga solinadigan soliq"*. Uni so'zma-so'z tarjima qilish (sovg'a) kontekstual va madaniy noaniqlikka sabab bo'ladi. To'g'ri tarjima: *"Hukumat neft kompaniyalariga kutilmagan daromad uchun maxsus soliq joriy qildi"*. O'quvchiga mavzuga mos tushunarli va funksional ma'lumot yetkazilgan pragmatik adekvatlik ta'minlangan.

**4. Stilistik adekvatlik** tarjima jarayonida matnning ohangi, uslubi, emotsional tusi va ritorik vositalarini asliyatga mos tarzda ifodalashni anglatadi. Bu yondashuv matnning kommunikativ vazifasi bilan bir qatorda, yozuvchining uslubiy tanlovlarini ham hurmat qilishni talab qiladi. Stilistik adekvatlik, ayniqsa, adabiy, publitsistik, ilmiy yoki rasmiy matnlarda muhim ahamiyat kasb etadi. U matnni "o'xshash emas, o'ziga xos" qilishga xizmat qiladi. Adekvat tarjima misoli: *"These figures paint a grim picture of the country's economic future"*. Tarjimasi: *"Bu raqamlar mamlakatning iqtisodiy kelajagi borasida og'ir manzarani aks ettiradi"*. *"Paint a grim picture"* metaforik, stilistik kuchga ega ibora bo'lib, tarjimada ohang, emotsional tus, va so'z tanlovi uslubiy uyg'unlikda saqlangan va stilistik adekvatlikka xosdir. So'zma-so'z tarjima (stilistik nomuvofiqlik bilan): *"Investor confidence has been shaken to the core"*. Moslashtirilgan tarjima: *"Investorlarning ishonchi poymol bo'ldi"*. *"Poymol bo'ldi"* ifodasi investorlar ishonchining jiddiy zarar ko'rganini va sezilarli darajada izdan chiqqanini aniq, ixcham va stilistik jihatdan ta'sirli yetkazadi. Bu variant ortiqcha metaforik murakkablik ham asl matndagi kuchli emotsional hisni saqlaydi.

Tarjimada adekvatlik faqatgina to'g'ri tarjima qilish emas, balki til, mazmun, madaniyat, uslub va kommunikatsiyaning murakkab uyg'unligini ta'minlash demakdir. Har bir adekvatlik darajasi tarjimaning alohida funksional jihatini ifodalaydi va ularni uyg'unlashtirish orqali yuqori sifatli, muloqotga mos, tushunarli va kontekstga mos

tarjima yuzaga keladi. Masalan: *“Moliyaviy piramida”* firibgarlik asosida qurilgan moliyaviy sxema bo‘lib, unda daromadlar real investitsiyalardan emas, balki yangi ishtirokchilarning qo‘shgan pullaridan to‘lanadi. Bu model ko‘pincha insonlarga tez boyluk, yuqori foiz yoki katta foyda va‘da qilish orqali ularni sxemaga jalb etishga asoslanadi. Ingliz tilidagi adekvat tarjimasi: *“Pyramid scheme”* moliyaviy piramida terminining to‘g‘ridan to‘g‘ri va eng yaqin ekvivalenti hisoblanadi. Ba‘zan *“Ponzi scheme”* termini ham ishlatiladi, lekin u alohida turdagi *firibgarlik sxemasi* bo‘lib, mohiyatan *moliyaviy piramidaga* yaqin. O‘zbek tilida *“moliyaviy piramida”* deganda odatda *“bir guruh odamlar yangi ishtirokchilardan pul olib, ularni yuqoridagi (oldingi) ishtirokchilarga tarqatishi”* nazarda tutiladi. Ingliz tilida bu tushunchaga to‘g‘ri keladigan eng yaqin va tan olingan termin: *“Pyramid scheme – a fraudulent business model where participants earn money primarily by recruiting others rather than through actual sales or investment returns”*. Bu ta‘rifda *“daromad real faoliyatdan emas, yangi a‘zolar hisobidan olinadi”* degan asosiy xususiyat ta‘kidlangan bo‘lib, u moliyaviy piramidaning asosiy belgilaridan biridir. Misol: *“Many people lost their savings in a pyramid scheme that promised quick returns”*. Adekvat tarjima: *“Ko‘plab odamlar tez foyda va‘dasi bilan aldab, ularni moliyaviy piramidaga jalb qilgan sxemada jamg‘armalaridan ayrildilar”*. *“Moliyaviy piramida”* ingliz tiliga *“pyramid scheme”* deb tarjima qilinadi. *“Ponzi scheme”* unga yaqin tushuncha bo‘lsa ham, markazlashtirilgan sxemani anglatadi. Ikkala termin ham real iqtisodiy faoliyatga asoslanmagan, firibgarlik yo‘li bilan daromad olish sxemalarini ifodalaydi. Tarjimada adekvatlik zarur, chunki bu terminlar ko‘plab o‘quvchilar uchun noaniq yoki madaniy jihatdan yot bo‘lishi mumkin. Shu sababli tarjimada qisqa izoh berish lozim.

Semantik jihatdan ekvivalentlik lingvistik va pragmatik uyg‘unlikka yo‘l ochadi, bu esa iqtisodiy matnlarning aniqligini va ma‘no to‘liq saqlanishini ta‘minlaydi. Ekvivalentlik faqat ma‘no tengligini emas, balki lingvistik, semantik, pragmatik va stilistik moslikni ham ta‘minlab, tarjimaning sifat va samaradorligini oshiradi. Shu sababli matnning turi va kontekstiga qarab optimal ekvivalentlik usullari tanlanadi. Quyida moliyaviy-iqtisodiy matnlarda eng ko‘p uchraydigan ekvivalentlik darajalari tahlil qilinadi:

1. **Formal ekvivalentlik** tarjimada asliyat matnning leksik, grammatik va strukturaviy jihatlarini imkon qadar aniq aks ettirishni maqsad qiladi. Ushbu yondashuv texnik, ilmiy, huquqiy va moliyaviy-iqtisodiy hujjatlarda matnning aniqligi va izchilligini ta‘minlash uchun qo‘llaniladi. Formal ekvivalentlikda tarjimon matnning strukturaviy mosligini saqlashga alohida e‘tibor qaratadi, bunda so‘z va jumlar tartibi asliyatga yaqin holda uzatiladi. Bu, ayniqsa, texnik tafsilotlar va huquqiy kuchga ega hujjatlar uchun dolzarbdir. Moliyaviy-iqtisodiy kontekstda formal ekvivalentlik shartnomalar, hisobotlar va normativ hujjatlarni tarjima qilishda muhim ahamiyatga ega. Har bir matn elementi to‘g‘ri va o‘z o‘rnida ifodalanishi, huquqiy va texnik mazmunni saqlab qolish talab qilinadi. Ushbu yondashuv mazmunning aniqligini ta‘minlash bilan birga, muloqot samaradorligini oshiradi va matnning maqsadga muvofiqligini ta‘minlaydi. Masalan: *“The company’s net profit for the fiscal year amounted to \$1.2 million”*. Tarjimasi: *“Kompaniyaning moliya yilidagi sof foydasi*

*1,2 million AQSh dollarini tashkil etdi*". Ushbu jumlada leksik birliklar (masalan, *net profit – sof foyda*) va grammatik shakllar aniq tarjima qilingan, jumlaning strukturasi saqlangan.

Ingliz tilida: *"This agreement shall remain in effect until terminated by either party upon written notice"*. Tarjimasi: *"Ushbu shartnoma tomonlardan biri tomonidan yozma bildirishnoma asosida bekor qilinmaguncha kuchda qoladi"*. Bu jumlada *"agreement"*, *"terminated"* va *"written notice"* kabi huquqiy terminlar tarjimada aniq va soʻzma-soʻz aks ettirilgan. Strukturaviy moslik formal ekvivalentlik yondashuvining asosiy tamoyiliga muvofiq ravishda saqlangan. Shartnomalar va normativ hujjatlar rasmiy uslubga ega boʻlib, ularda formal ekvivalentlikning ahamiyati juda katta. Bu matnlarda soʻz va iboralarning aniq maʼnosi, grammatika va strukturaviy moslikni saqlash huquqiy yoki texnik noaniqliklarning oldini olish uchun zarur.

1. **Dinamik ekvivalentlik** tarjimada mazmun va kommunikativ taʼsirni saqlashga asoslangan yondashuv boʻlib, uning asosiy maqsadi oʻquvchiga tabiiy va tushunarli shaklda axborot yetkazishdir. Bu usulda lingvistik moslikdan koʻra matnning semantik aniq va taʼsirchan boʻlishi muhim sanaladi. Tarjima auditoriyasining madaniy va lingvistik xususiyatlariga moslashtirish tarjimaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Moliyaviy-iqtisodiy matnlarda bu yondashuv matnning murakkabligini kamaytirib, uni oʻquvchi uchun aniq va mantiqiy tushunarli qilish imkonini beradi. Jumladan: *"The company experienced a temporary liquidity shortage due to unexpected market conditions"*. Tarjimasi: *"Kompaniya kutilmagan bozor sharoitlari sababli vaqtinchalik likvidlik tanqisligini boshdan kechirdi"*. Bu tarjimada *"liquidity shortage"* termini toʻgʻridan toʻgʻri iqtisodiy termin sifatida qoldirilgan, ammo jumlaning qolgan qismi oʻquvchiga tushunarli va tabiiy shaklda qayta ifodalangan. Bu kommunikativ samaradorlikni oshiradi.

Ingliz tilida: *"A significant portion of the revenue was reinvested to expand the company's operations"*. Tarjimasi: *"Daromadning muhim qismi kompaniya faoliyatini kengaytirish uchun qayta investitsiya qilindi"*. *"Significant portion"* va *"reinvested"* kabi terminlar oʻz kontekstida moslashtirilgan holda tarjima qilingan, bu esa oʻquvchiga maʼnoni tushunishni osonlashtiradi va matnni tabiiyroq qiladi.

Dinamik ekvivalentlik tarjimada matnning asosiy mazmunini saqlagan holda, uni auditoriyaning lingvistik va madaniy xususiyatlariga moslashtirishni taʼminlaydi. Moliyaviy-iqtisodiy matnlarda ushbu yondashuv murakkab terminlarni soddalashtirib, ularni keng auditoriya uchun tushunarli qilishga yordam beradi. Ayniqsa, hisobotlar va maʼlumotlarda samarali qoʻllanilib, matnning asosiy gʻoyasi va kommunikativ maqsadini aniq yetkazish imkonini yaratadi.

2. **Pragmatik ekvivalentlik** Y.Nayda tomonidan ishlab chiqilgan dinamik ekvivalentlik nazariyasi tarjima nazariyasida yangilik sifatida qabul qilinadi, chunki u tarjimaning pragmatik jihatlariga urgʻu berib, matn oʻquvchilari orasida maqsadga mos reaksiyalar uygʻotishni asosiy vazifa sifatida belgilaydi. Bu yondashuvga koʻra, tarjima nafaqat lingvistik darajada toʻgʻri boʻlishi kerak, balki mazmunning pragmatik taʼsirini ham yetkazishi lozim [Karpovskaya, 2011].

Pragmatik ekvivalentlik moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda lingvistik moslikdan tashqari, mazmunning kontekstual va madaniy nuqtayi nazardan to‘g‘ri talqin qilinishini ta‘minlaydi. Ushbu tamoyil murakkab iqtisodiy tushunchalarni aniq yetkazish, kommunikativ maqsadga mos ravishda muloqotni qo‘llab-quvvatlash va matnning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda pragmatik ekvivalentlik ilmiy aniqlik, mantiqiy izchillik va tarjima auditoriya uchun tushunarli bo‘lish tamoyillariga asoslanishi lozim. Misol uchun: *“The elasticity of demand, defined as the percentage change in quantity demanded relative to the percentage change in price, plays a critical role in market analysis. For instance, a price reduction in essential goods often leads to a proportionally smaller increase in demand due to their inelastic nature, whereas luxury items exhibit significantly higher elasticity”*.

Tarjimasi: *“Talab elastikligi narxdagi o‘zgarishlarga nisbatan talab hajmidagi foizli o‘zgarishni ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, bozor tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, asosiy ehtiyoj tovarlari narxining pasayishi ko‘pincha talab hajmining nisbatan kichikroq o‘shishiga olib keladi, chunki bunday tovarlar inelastik xususiyatga ega. Bunga qarama-qarshi ravishda, hashamat tovarlari sezilarli darajada yuqori elastiklik ko‘rsatadi”*.

Pragmatik ekvivalentlik tarjimada kommunikativ maqsad, ilmiy aniqlik va madaniy moslikni saqlashga xizmat qiladi. Moliyaviy-iqtisodiy matnlarda bu yondashuv lingvistik aniqlik, mantiqiy izchillik va auditoriya uchun tushunarlilikni ta‘minlaydi. U funksional to‘g‘rilik orqali terminlarning kontekstga mos talqinini ifodalaydi. Misol uchun: *“Customer retention is often more cost-effective than acquiring new customers. Research shows that increasing customer retention by 5% can lead to a 25–95% increase in profits, making it a critical strategy for long-term business success”*.

Tarjimasi: *“Mijozlarni ushlab qolish odatda yangi mijozlarni jalb qilishga qaraganda iqtisodiy jihatdan samaraliroq hisoblanadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, mijozlarni ushlab qolish darajasini 5%ga oshirish foydani 25%dan 95%gacha oshirishi mumkin, bu esa uzoq muddatli biznes muvaffaqiyati uchun muhim strategiyadir”*.

Pragmatik ekvivalentlik – bu tarjimada muallifning niyati va kommunikativ ta‘sirini saqlashga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lib, moliyaviy-iqtisodiy matnlarda matnning mazmuniy aniqligi, madaniy mosligi va amaliy tushunarlilikini ta‘minlaydi. Bu yondashuv o‘quvchining kontekstini, diskursni va milliy terminologiyani hisobga olib, aniq va ta‘sirchan tarjimani yaratadi.

Pragmatik ekvivalentlik tarjimada asosiy iqtisodiy tushunchalarning mohiyatini aniq va izchil yetkazish tamoyiliga asoslanadi. *“Inflation targeting”* terminining *“inflyatsiya darajasini boshqarish”* deb tarjima qilinishi iqtisodiy strategiyaning mohiyatini to‘g‘ri aks ettirib, milliy iqtisodiy terminologiyaga moslashtirilgan. Shuningdek, *“foiz stavkalari”* kabi terminlar iste‘molchilar xarajatlarini tartibga solish va narxlar barqarorligini ta‘minlashdagi rolini ochib berish orqali kontekstga moslashtirilgan. Markaziy bank siyosatining o‘zbek iqtisodiy kontekstida izchil izohlanishi pragmatik ekvivalentlikni ta‘minlab, iqtisodiy tushunchalarning aniq va

tushunarli talqin qilinishiga xizmat qiladi.

3. **Kontekstual ekvivalentlik** tarjimada matnning semantik va kommunikativ mohiyatini yangi til va madaniyatga moslashtirish orqali izchillikni ta'minlash tamoyilidir. Bu yondashuv asliyat tilidagi iboralar va terminlarning kontekstga mos ekvivalentlarini tanlash orqali matnning ta'sirini saqlashga yordam beradi. Xususan, moliyaviy-iqtisodiy matnlarda nazariy tushunchalarni to'g'ri talqin qilish va ularning mantiqiy izchilligini ta'minlash uchun kontekstual ekvivalentlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Misol tariqasida, reklama sohasida *"Time is money"* iborasini o'zbek tilida *"Vaqt – boylik"* deb tarjima qilish mumkin. Bu tarjimada nafaqat so'zlarning ma'nosi, balki ularning berayotgan pragmatik ta'siri ham saqlanadi. Ingliz tilida: *"Financial market stability is essential for sustainable economic growth, as it ensures efficient allocation of resources and minimizes systemic risks"*. Tarjimasi: *"Moliyaviy-iqtisodiy bozor barqarorligi barqaror iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lib, u resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlaydi va tizimli xavflarni minimallashtiradi"*.

Ikkinchi misolda *"financial market stability"* so'z birikmasi *"moliyaviy-iqtisodiy bozor barqarorligi"* sifatida aniq va kontekstual jihatdan mos ravishda tarjima qilingan. Har ikkala misolda ham ma'no va kommunikativ niyatni saqlashga e'tibor qaratilgan bo'lib, bu kontekstual ekvivalentlik tamoyilining tarjimada dolzarbligini tasdiqlaydi.

4. **Funksional ekvivalentlik** tarjimada til birliklarining matndagi vazifasini saqlagan holda, ularni tarjima tilga mos ravishda o'girish tamoyilidir. Bu jarayonda grammatik, stilistik va semantik moslikni ta'minlash muhim bo'lib, tarjimaning kommunikativ samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, maqollar va idiomatik iboralar tarjimasida ekvivalentlik lingvistik emas, balki semantik va pragmatik muqobillik asosida amalga oshiriladi. Bu esa matnning mazmuni va madaniy ta'sirini izchil yetkazish imkonini beradi. Misol: *"A stitch in time saves nine"*. Tarjimasi: *"O'z vaqtida tikilgan tikuv – to'qqiz tikuvdan asraydi"*. Kontekstual ma'no: *"Vaqtida ko'rilgan choralar keyinchalik katta muammolarni bartaraf etadi"*. *"Har qanday muammoni erta aniqlash va hal qilish uni murakkablashishdan saqlaydi"*. Ushbu maqol ingliz tilida tezkor va oldindan ko'rilgan chora ko'proq muammolarni oldini olishni ta'kidlaydi. O'zbek tilidagi tarjimada semantik va funksional mazmuni saqlagan holda kontekstga moslashtirilgan. Misol, ingliz tili: *"Don't put all your eggs in one basket"*. Tarjimasi: *"Hamma mablag'ni bir joyga jamlama"*. Bu idiomatik o'zbek tilida iqtisodiy kontekstda foydalaniladigan ekvivalent ifoda bilan tarjima qilinib, uning ma'nosi va ta'siri to'liq saqlangan. Endi ushbu xususiyatni matnlar misolida tahlil qilamiz. Misol: *Debt bomb – qarzga botish, inqirozga yuz tutish; nochorlik. "The Debt Bomb: A Bold Plan to Stop Washington from Bankrupting"*. Tarjimasi: *"Iqtisodiy nochor: Vashingtonni bankrotlikdan (inqirozdan) to'xtatish uchun istiqbolli reja"*.

*Transaction deposit – hisobga pul qo'yish.* Ingliz tilida: *"Transaction deposits can be made at a branch of the bank, at an ATM, and by transferring funds from another account"*. Tarjimasi: *"Hisobga pul qo'yish bank filialida, bankomatda va boshqa hisobvaraqdan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin"*.

Moliyaviy-ijtimoiy matnlarni tarjima qilishda ekvivalentlik va adekvatlik konseptlari tarjimaning nafaqat shakliy, balki funksional va kommunikativ sifatini belgilovchi asosiy metodologik mezonlardandir. Har bir matn turi, qonunchilik hujjatidan tortib, marketing materialigacha, o'z kommunikativ maqsadi va kontekstiga qarab turli ekvivalentlik, adekvatlik yondashuvlarini talab qiladi. Shu bois tarjima jarayonida lingvistik tenglikdan ko'ra funksional moslik va kontekstual aniqlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadvalda O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida faol qo'llaniladigan ayrim mahalliy tushunchalarning ingliz tilidagi funksional ekvivalentlari va ularning kontekstual izohlari amaliy misol tariqasida keltirilgan (3-jadvalga qarang):

*3-jadval. Moliya va ijtimoiy-iqtisodiy tushunchalarning xalqaro tarjimalari*

<b>Mahalliy ibora / Tushuncha</b>	<b>Inglizcha funksional ekvivalent</b>	<b>Izoh / Talqin</b>
<i>Temir daftar</i>	<i>Targeted Social Protection Program</i>	ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlar uchun mo'ljallangan davlat dasturi
<i>Ayollar daftari</i>	<i>Women's Empowerment Assistance Program</i>	ijtimoiy-ijtimoiy zaif ayollarni qo'llab-quvvatlash dasturi
<i>Yoshlar daftari</i>	<i>Youth Employment and Support Program</i>	bandlik va ijtimoiy yordamga qaratilgan yoshlar dasturi
<i>Ehtiyojmand oila</i>	<i>Low-income family / Economically disadvantaged household</i>	iqtisodiy jihatdan yordamga muhtoj qatlamni bildiradi
<i>Subsidiyalar</i>	<i>Government subsidies / Public financial support</i>	davlat tomonidan ajratiladigan moliyaviy-iqtisodiy yordam
<i>Yoshlar krediti</i>	<i>Youth Entrepreneurship Loan</i>	yoshlar uchun biznesni boshlashga yo'naltirilgan imtiyozli kredit
<i>Yashil iqtisodiyot</i>	<i>Green Economy</i>	atrof-muhitga zarar yetkazmasdan iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi model
<i>Ijtimoiy yordam</i>	<i>Social assistance / Welfare support</i>	nafaqa, to'lov, xizmatlar orqali yordamni bildiradi
<i>Kam ta'minlangan oila</i>	<i>Low-income household / Economically disadvantaged family</i>	asosiy ijtimoiy yordam oluvchi qatlam
<i>Mahalliy byudjet hisobidan yordam</i>	<i>Locally funded social support / Decentralized welfare</i>	mahalliy hokimiyatlar moliyalashtirilgan yordam dasturi
<i>Tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash</i>	<i>Women entrepreneurship promotion program</i>	ayollarning moliyaviy-iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirishga qaratilgan tashabbus
<i>Yoshlar startup loyihalari</i>	<i>Youth-led startup initiatives / Innovation grant schemes</i>	yoshlarga mo'ljallangan biznesni boshlash dasturlari
<i>Subsidiyalangan xizmatlar</i>	<i>Subsidized services / State-supported access mechanisms</i>	davlat tomonidan to'liq yoki qisman moliyalashtirilgan xizmatlar
<i>Ijtimoiy himoya jamg'armasi</i>	<i>Social Protection Fund</i>	davlat tomonidan ijtimoiy yordamlarni moliyalashtiruvchi asosiy fond

<i>Davlat tomonidan ajratilgan kompensatsiya</i>	<i>Government Compensation Scheme</i>	ma'lum iqtisodiy zarar yoki yo'qotish uchun ajratiladigan rasmiy to'lov
<i>Oilaviy bolalar nafaqasi</i>	<i>Child allowance / Family-based child benefit</i>	bolali oilalarga ajratiladigan muntazam to'lovlar
<i>Mahalliy byudjet mablag'lari</i>	<i>Local government budget resources</i>	mahalliy darajada tasarruf qilinadigan moliyaviy-iqtisodiy resurslar
<i>Moliyaviy-iqtisodiy savodxonlik dasturi</i>	<i>Financial Literacy Program</i>	aholining moliyaviy-iqtisodiy ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan ta'limiy tashabbus
<i>Subsidiyalangan kredit</i>	<i>Subsidized loan</i>	past foizli yoki yengillashtirilgan shartlarda beriladigan davlat qo'llovi krediti
<i>Bozor infratuzilmasi</i>	<i>Market infrastructure</i>	savdo, ta'minot, logistika va xizmatlar bilan bog'liq tizimli iqtisodiy muhit

Tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik tamoyillarining chuqur tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu yondashuvlar matnning shakliy va mazmuniy jihatdan aniqligi hamda kontekstga mosligini ta'minlaydi. Lingvistik adekvatlik grammatik va terminologik aniqlikni kafolatlar ekan, funksional va pragmatik ekvivalentlik matnning kommunikativ samaradorligini oshiradi.

Ayniqsa, moliyaviy-iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda milliy tushunchalarni xalqaro kontekstga mos tarzda ifodalashda funksional strategiyalarning ustuvorligi isbotlandi. Bu borada tarjimon matnning janri, maqsadi va auditoriyasini inobatga olgan holda mos yondashuvni tanlashi zarur. Y.Naydaning dinamik ekvivalentlik nazariyasiga ko'ra, murakkab tushunchalarni semantik va stilistik aniqlikni saqlagan holda tushunarli shaklda yetkazish tarjimaning amaliy samaradorligini oshiradi.

Moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda dinamik ekvivalentlik yondashuvi nafaqat lingvistik moslikni, balki iqtisodiy tushunchalarni o'quvchi auditoriyasining bilim darajasiga moslashtirishni ham nazarda tutadi. Bu, ayniqsa, murakkab texnik terminlarni oddiy va tushunarli shaklda ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu kabi yondashuvlar matnning semantik va pragmatik mazmunini saqlagan holda, uni o'quvchi uchun qulayroq va tushunarli shaklda taqdim etishga xizmat qiladi. Ushbu strategiyalar matnni o'quvchiga yaqinlashtirish va tushunishni osonlashtirish imkonini beradi (4-jadvalga qarang):

*4-jadval. Dinamik ekvivalentlik strategiyalari*

<b>Strategiya</b>	<b>Ta'rif</b>	<b>Misol</b>	<b>Tarjimasi</b>
<i>Konseptual soddalashtirish</i>	murakkab iqtisodiy terminlarni kundalik hayotga yaqin ifodalar bilan izohlash	Inflation means prices go up, reducing how much your money can buy. For instance, if something costs \$100 today, it may cost \$105 next year.	Inflyatsiya narxlarning oshishini anglatadi va sizning pulingizning xarid quvvatini kamaytiradi. Masalan, bugun 100 dollar turadigan narsa ertaga 105 dollar bo'ladi.

<i>Metaforik va analogik tushuntirish</i>	murakkab tushunchalarni osonroq tushuntirish uchun analogiyalarni ishlatish	The stock market is like an auction. Buyers and sellers agree on a price for shares based on demand and supply.	Fond bozori auksionga o'xshaydi. Xaridor va sotuvchilar talab va taklifga qarab aksiyalar narxida kelishadilar.
<i>Lingvistik moslashuv</i>	moliyaviy-iqtisodiy terminlarni tarjima matni auditoriya darajasiga mos ravishda izohlash yoki mos terminlar bilan almashtirish	Return on Investment (ROI) measures how much profit you make on money invested. For example, investing \$1,000 and earning \$1,200 gives a 20% ROI.	Kapitalning daromadligi (ROI) sarmoyadan olinadigan foydani o'lchaydi. Masalan, 1,000 dollar sarmoya qilib, 1,200 dollar foyda ol-sangiz, ROI 20% bo'ladi.
<i>Kontekstual vizualizatsiya</i>	diagramma va grafiklardan foydalanib, murakkab iqtisodiy tushunchalarni sodda shaklda tushuntirish	Supply and demand can be visualized with a graph. If demand increases while supply stays constant, the price goes up.	Talab va taklifni grafikda tasvirlash mumkin. Agar talab oshib, lekin taklif o'zgar-masa, narxlar oshadi.
<i>Dialogik tarjima uslubi</i>	savol-javob shaklida murakkab iqtisodiy tushunchalarni tushuntirish	Q: What is an interest rate? A: It's the cost of borrowing money. For instance, borrowing \$10,000 at 10% means paying \$1,000 in a year.	S: Foiz stavkasi nima? J: Bu qarz olish narxi. Masalan, 10,000 dollar qarz olib, 10% to'lasangiz, bir yilda 1,000 dollar to'laysiz.

Jadvalda keltirilgan strategiyalar moliyaviy-iqtisodiy tushunchalarni keng auditoriya uchun tushunarli shaklda taqdim etishda dinamik ekvivalentlik yondashuvining samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Ushbu yondashuvlar murakkab iqtisodiy terminlarni oddiy va qabul qilinadigan ifodalarga aylantirish orqali nafaqat ma'lumotni o'zlashtirishni osonlashtiradi, balki matnning kommunikativ samaradorligini ham oshiradi. Vizual va dialogik usullar iqtisodiy jarayonlarning murakkabligini soddalashtirishga xizmat qilib, o'quvchini mavzuga jalb qilish va bilimni yanada samarali yetkazishni ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy bilimlarni ommalashtirish va tushunchalarning intuitiv qabul qilinishiga olib keladi.

Ushbu tadqiqot natijasida tarjima amaliyotida madaniy va kontekstual moslashtirishni ta'minlovchi strategiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, madaniy moslashuv strategiyalari pragmatik ekvivalentlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilib, ular matndagi madaniy farqlarni hisobga olishga yo'naltirilgan. Ushbu tarjima strategiyalari xorijiy auditoriya uchun notanish bo'lgan iqtisodiy tushunchalarni qabul qilinadigan va madaniy jihatdan mos keluvchi ekvivalent birliklar orqali izohlash imkonini berdi. Misol: “*“Gross Domestic Product (GDP)” measures the value of all goods and services produced in a country*”. Tarjimasi: “*“Yalpi ichki mahsulot (YIM)” mamlakatda ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlar qiymatini o'lchaydi*”. Ushbu izoh orqali iqtisodiy terminning ma'nosi kengroq auditoriyaga tushunarli shaklda izohlangan.

Ikkinchidan, kontekstual ekvivalentlik uchun lingvistik moslashuv strategiyalari har bir tilga xos iboralar va iqtisodiy birliklarni tarjima kontekstiga moslashtirishni

ta'minlash uchun ishlab chiqildi. Frazеologik birliklarni moslashtirish orqali texnik tilning tabiiy ifodasi saqlanib qoldi. Masalan: *"Inflation eats away the purchasing power of money"*. Tarjimasi: *"Inftyatsiya pulning xarid quvvatini pasaytiradi"*. Bu yondashuv orqali murakkab iqtisodiy jarayonlar auditoriya uchun qabul qilinarli shaklda ifodalandi.

Uchinchidan, funksional ekvivalentlik uchun stilistik yondashuvlar matn janri va maqsadini hisobga olgan holda turli kommunikativ vazifalar uchun ishlab chiqildi. Texnik iqtisodiy hisobotlar rasmiy va qat'iy uslubda tarjima qilinib, ilmiy mantiqiy izchillikni saqlashga qaratilgan. Reklama matnlari esa hissiy va ta'sirchan tilni qo'llash orqali ommabop ifoda shakliga moslashtirildi. Masalan: *"Maximize your returns with our investment plan!"*. Tarjimasi: *"Bizning sarmoya rejamiz bilan foydangizni maksimal darajada oshiring!"*. Ushbu ta'sirchan uslub o'quvchining qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu strategiyalarning amaliy qo'llanilishi matnning madaniy, lingvistik va funksional muvofiqligini ta'minlashga yordam berdi. Masalan, iqtisodiy bozor talabi va taklifi diagrammalarini grafik va lingvistik jihatdan moslashtirish orqali tushunishni yengillashtiruvchi taqdimot shakllari ishlab chiqildi: *"If demand rises but supply remains constant, prices will increase"*. Tarjimasi: *"Agar talab oshib, lekin taklif o'zgarmasa, narxlar ko'tariladi"*.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda lingvistik ekvivalentlik va funksional adekvatlik tamoyillariga asoslangan yondashuv axborotning aniqligi, izchilligi va madaniy mosligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ekvivalentlik tarjima matnida aslyatdagi mazmuni semantik jihatdan to'g'ri yetkazish, adekvatlik esa uni kontekst, madaniyat va maqsadli auditoriya ehtiyojlariga moslashtirish jarayonidir. Bu tamoyillarni uyg'un qo'llash natijasida tarjima nafaqat grammatik to'g'ri, balki funksional va kommunikativ jihatdan samarali bo'ladi. Moliyaviy-iqtisodiy matnlar o'zining texnik terminologiyasi, rasmiy uslubi va xalqaro standartlar bilan uyg'unligi tufayli, ularni tarjima qilish moliya va iqtisodiyot mutaxassislari uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan strategik faoliyatga aylanadi. Shu bois tarjimada ekvivalentlik va adekvatlikka tayangan ilmiy asoslangan yondashuvlar xalqaro iqtisodiy muloqot samaradorligini oshirishda, terminologik birliklarning aniq va madaniyatga mos uzatilishini ta'minlashda asosiy vosita sifatida qaraladi.

Umuman olganda, adekvatlik va ekvivalentlik tarjimaning ilmiy asoslangan eng muhim ikki tamoyili bo'lib, ularning to'g'ri qo'llanilishi tarjima sifatini aniqlovchi asosiy mezondir. Adekvatlik tarjimada mazmun, shakl, uslub va kommunikativ maqsadning muvozanatli ifodalanishini ta'minlaydi, ekvivalentlik esa lingvistik va funksional moslikni izchil saqlab qolishga qaratiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, lingvistik adekvatlik tarjimaning grammatik va leksik to'g'riligini belgilasa, mazmuniy ekvivalentlik auditoriya uchun tushunarli, kontekstual jihatdan muvofiq ifodani yaratishi asoslaniladi. Tarjima nazariyasida semantik ekvivalentlikni

saqlash har doim ham yetarli emas, ayniqsa ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy kontekst bilan boyitilgan matnlar tarjimasida. Bunday hollarda funksional va pragmatik yondashuvlar tarjimaning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omilga aylanishi dalillanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, Sh.N. (2019). *Iqtisodiy matnlar tarjimasining lingvopragmatik xususiyatlari*. Toshkent: “Fan” nashriyoti.
2. Byrne, J. (2012). *Scientific and technical translation explained: A nuts and bolts guide for beginners* (1st ed.). London: Routledge.
3. Fesenko, T.A. (2002). *Spetsifika natsionalnogo kulturnogo prostranstva v zerkale perevoda*. Tambov: Izdatelstvo Tomskogo gosudarstvennogo universiteta.
4. Gómez González-Jover, A., & Vargas Sierra, C. (2003). Metodología para alimentar una base de datos terminológica desde las necesidades del traductor. In R. Muñoz Martín (Ed.), *I AIETI. Actas del I Congreso Internacional de la Asociación Ibérica de Estudios de Traducción e Interpretación* (Vol. 2, pp. 629–648). Granada: AIETI.
5. Gouadec, D. (2007). *Translation as a profession*. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
6. Halverson, S.L. (1997). The concept of equivalence in translation studies: Much ado about something. *Target. International Journal of Translation Studies*, 9(2), 207–233. <https://doi.org/10.1075/target.9.2.02hal>.
7. Hann, P. (2004). *Translation as a science: Technical and scientific perspectives*. London: Routledge.
8. International Organization for Standardization. (2009). *ISO 704:2009. Terminology work—Principles and methods*. Geneva: Author.
9. Catford, J.C. (1965). *A linguistic theory of translation: An essay in applied linguistics*. Oxford: Oxford University Press.
10. Karpovskaya, N.V. (2011). K voprosu o probleme pragmaticheskoy ekvivalentnosti v perevode. *Russian Journal of Linguistics*, 4, 98–104.
11. Koller, W. (1979). *Einführung in die Übersetzungswissenschaft*. Wiebelsheim: Quelle & Meyer.
12. Komissarov, V.N. (1990). *Teoriya perevoda*. Moskva: Vysshaya shkola.
13. Latyshev, L.K. (1981). *Kurs perevoda: ekvivalentnost perevoda i sposoby yeye dostizheniya*. Moskva: Mezhdunarodnye otnosheniya.
14. Minyar-Beloruichev, R.K. (1996). *Teoriya i metody perevoda*. Moskva: Moskovskiy Litsey.
15. Muhammadiyeva, D. (2007). Matn va uning turlari. “Istiqlol va til” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari’da (3-q., 25–37-b.). Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
16. Musayev, Q. (2005). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: “Fan” nashriyoti.
17. Nida, E.A. (2003). *Toward a science of translating: With special reference to principles and procedures involved in Bible translating* (2nd ed.). Leiden: Brill.
18. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. Hertfordshire: Prentice Hall.
19. Nord, C. (2014). *Translating as a purposeful activity: Functionalist approaches explained* (1st ed.). London: Routledge.
20. Olohan, M. (2004). *Introducing corpora in translation study*. London: Routledge.
21. Ortega y Gasset, J. (1992). The misery and the splendor of translation. In R. Schulte & J. Biguenet (Eds.), *Theories of Translation: An Anthology of Essays from Dryden to Derrida* (E.G. Miller, Transl., pp. 93–112). Chicago: University of Chicago Press.
22. Qodirova, M.A. (2018). *Maxsus tarjima nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.
23. Raximov, G.X. (2021). *Tarjima nazariyasi va amaliyoti masalalari*. Toshkent: “Fan” nashriyoti.

24. Reiss, K. (1989). Text types, translation types and translation assessment. In A. Chesterman (Ed.), *Readings in Translation Theory* (pp. 105–115). Helsinki: Oy Finn Lectura Ab.
25. Retsker, Ya.I. (1974). *Teoriya perevoda i perevodcheskaya praktika: Ocherki lingvisticheskoy teorii perevoda*. Moskva: Mezhdunarodnye otnosheniya.
26. Robinson, D. (2019). *Becoming a translator: An introduction to the theory and practice of translation* (4th ed.). London: Routledge.
27. Rogers, M. (2015). *Specialised translation: Shedding the 'non-literary' tag*. London: Palgrave Macmillan.
28. Salomov, G'. (2006). *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
29. Vermeer, H.J. (1989). Skopos and commission in translational action. In A. Chesterman (Ed.), *Readings in Translation Theory* (pp. 173–187). Helsinki: Oy Finn Lectura Ab.
30. Shukurov, I.M. (2020). *Tarjima nazariyasi va zamonaviy yondashuvlar*. Toshkent: "Ilm ziyo" nashriyoti.

## REFERENCES

1. Abdullayeva, Sh.N. (2019). *Linguopragmatic features of the translation of economic texts*. Tashkent: Science Publishing House.
2. Byrne, J. (2012). *Scientific and technical translation explained: A nuts and bolts guide for beginners* (1st ed.). London: Routledge.
3. Catford, J.C. (1965). *A linguistic theory of translation: An essay in applied linguistics*. Oxford: Oxford University Press.
4. Fesenko, T.A. (2002). *The specificity of national cultural space in the mirror of translation*. Tambov: Tomsk State University Publishing House.
5. Gómez González-Jover, A., & Vargas Sierra, C. (2003). Methodology for developing a terminological database based on translators' needs. In R. Muñoz Martín (Ed.), *I AIETI: Proceedings of the First International Congress of the Iberian Association of Translation and Interpreting Studies* (Vol. 2, pp. 629–648). Granada: AIETI.
6. Gouadec, D. (2007). *Translation as a profession*. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
7. Halverson, S.L. (1997). The concept of equivalence in translation studies: Much ado about something. *Target. International Journal of Translation Studies*, 9(2), 207–233. <https://doi.org/10.1075/target.9.2.02hal>.
8. Hann, P. (2004). *Translation as a science: Technical and scientific perspectives*. London: Routledge.
9. International Organization for Standardization. (2009). *ISO 704:2009. Terminology work—Principles and methods*. Geneva: Author.
10. Karpovskaya, N.V. (2011). On the problem of pragmatic equivalence in translation. *Russian Journal of Linguistics*, 4, 98–104.
11. Koller, W. (1979). *Introduction to translation studies*. Wiebelsheim: Quelle & Meyer.
12. Komissarov, V.N. (1990). *Translation theory*. Moscow: Higher School Publishing House.
13. Latyshev, L.K. (1981). *Translation course: Translation equivalence and ways of achieving it*. Moscow: International Relations Publishing House.
14. Minyar-Beloruichev, R.K. (1996). *Theory and methods of translation*. Moscow: Moscow Lyceum.
15. Muhammadiyeva, D. (2007). Text and its types. In *Proceedings of the Scientific-Practical Conference of 'Independence and Language'* (Pt. 3, pp. 25–37). Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
16. Musayev, Q. (2005). *Fundamentals of translation theory*. Tashkent: Science Publishing House.
17. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. Hertfordshire: Prentice Hall.
18. Nida, E.A. (2003). *Toward a science of translating: With special reference to principles and procedures involved in Bible translating* (2nd ed.). Leiden: Brill.

19. Nord, C. (2014). *Translating as a purposeful activity: Functionalist approaches explained* (1st ed.). London: Routledge.
20. Olohan, M. (2004). *Introducing corpora in translation study*. London: Routledge.
21. Ortega y Gasset, J. (1992). The misery and the splendor of translation. In R.Schulte & J.Biguenet (Eds.), *Theories of Translation: An Anthology of Essays from Dryden to Derrida* (E.G. Miller, Transl., pp. 93–112). Chicago: University of Chicago Press.
22. Qodirova, M.A. (2018). *Theory and practice of specialized translation*. Tashkent: Tashkent State Institute of Oriental Studies.
23. Rakhimov, G.Kh. (2021). *Issues of translation theory and practice*. Tashkent: Science Publishing House.
24. Reiss, K. (1989). Text types, translation types and translation assessment. In A.Chesterman (Ed.), *Readings in Translation Theory* (pp. 105–115). Helsinki: Oy Finn Lectura Ab.
25. Retsker, Y.I. (1974). *Translation theory and translation practice: Essays on the linguistic theory of translation*. Moscow: International Relations Publishing House.
26. Robinson, D. (2019). *Becoming a translator: An introduction to the theory and practice of translation* (4th ed.). London: Routledge.
27. Rogers, M. (2015). *Specialised translation: Shedding the 'non-literary' tag*. London: Palgrave Macmillan.
28. Salomov, G. (2006). *Translation theory and practice*. Tashkent: Science Publishing House.
29. Shukurov, I.M. (2020). *Translation theory and modern approaches*. Tashkent: Ilm Ziyo Publishing House.
30. Vermeer, H.J. (1989). Skopos and commission in translational action. In A.Chesterman (Ed.), *Readings in Translation Theory* (pp. 173–187). Helsinki: Oy Finn Lectura Ab.